

# **Namangandan Krasnoyarskka parvozlarni amalga oshirilishi boshlandi**

**2022 29 Mart**

2022-yil 29-mart kuni «Sharqiy» xab loyihasi doirasida Uzbekistan Express Namangan – Krasnoyarsk – Namangan xalqaro yoʻnalishi boʻyicha ilk parvozni amalga oshiradi. Ushbu yoʻnalishdagi muntazam aviaqatnovlar «toʻliq ekonom» formatida seshanba kunlari amalga oshiriladi.

Namangandan uchish: 17:35 (Toshkent vaqti bilan)

Krasnoyarskka yetib borish: 22:50 (Krasnoyarsk vaqti bilan)

Krasnoyarskdan uchish: 00:20 (Krasnoyarsk vaqti bilan)

Namanganga yetib kelish: 01:55 (Toshkent vaqti bilan)

Namangan – Krasnoyarsk yoʻnalishi boʻyicha bagaj bilan aviachipta narxi 2 388 069 soʻmdan, Namangan – Krasnoyarsk – Namangan yoʻnalishi boʻyicha esa 4 433 304 soʻmdan boshlanadi.

Narxlar 29.03.2022 holatiga koʻra amal qiladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytida, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qiling.